

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qulyozma huquqida

UDK: 368.9(575.1)

BAZAROV ZAKIR XONQULOVICH

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SHAXSIY SUG‘URTANI
RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy maslahatchi: iqtisodiyot fanlar doktori,
professor Burxanov Aktam Usmanovich

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-bob. SHAXSIY SUG‘URTA BOZORINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	15
1.1. Shaxsiy sug‘urtaning iqtisodiy mohiyati, tarkibiy tuzilmasi va funksiyalari va rivojlanishdagi roli	15
1.2. Xorijiy davlatlar tajribasida shaxsiy sug‘urtani tartibga solish va rivojlantirish yondashuvlari	35
1.3. Sug‘urta talabiga ta’sir etuvchi omillar: demografik, makroiqtisodiy va psixologik tahlil	53
Birinchi bob bo‘yicha xulosa.	71
2-bob. O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA MUAMMOLAR...	73
2.1. O‘zbekistonda sug‘urta bozori holati va o‘shish sur‘ati.	73
2.2. O‘zbekiston sug‘urta bozorida hayot sug‘urtasi xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va istiqbollari	94
2.3. O‘zbekistonda tibbiy sug‘urta joriy etilishining tajribali bosqichlari va amaliy natijalari.	114
Ikkinchi bob bo‘yicha xulosa.	135
3-bob. O‘ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG‘URTANI RIVOJLANTIRISHNING KONSEPTUAL YONDASHUVLARI VA STRATEGIK YO‘NALISHLARI....	137
3.1. O‘zbekistonda shaxsiy sug‘urta turlarining rivojlanishidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari.	137
3.2. Sug‘urta kompaniyalari faoliyati va mahsulot portfeli tarkibining tahlili	157
3.3. Shaxsiy sug‘urtani rivojlantirish ta’rif siyosatini takomillashtirish yo‘llari.	176
Uchinchi bob bo‘yicha xulosa.	190

4-bob. O‘ZBEKISTONDA SHAXSIY SUG‘URTA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY MODELLASHTIRILGAN ASOSLARI.....	192
4.1. Sug‘urta xizmatlariga bo‘lgan talabni o‘rganish metodikasi.	192
4.2. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi asosida O‘zbekistonda shaxsiy sug‘urtaning konseptual modeli.	207
4.3. Sug‘urta mukofotlariga ta’sir qiluvchi omillarini ekonometrik tahlili	226
To‘rtinchi bob bo‘yicha xulosa.	236
XULOSA	239
ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	244
ILOVALAR.....	

KIRISH (fanlari doktori (DSc) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. “Global hayot sugʻurtasi bozori hajmi taxminan 3,1 trillion AQSh dollariga yetgan boʻlib, bu koʻrsatkich 2017-yildagi 1,9 trillion dollarlik natijadan ancha yuqori ekanligini koʻrsatadi. Mutaxassislarning prognozlariga koʻra, ushbu soha 2023-2028-yillar davomida oʻrtacha yillik 9 foiz atrofida oʻsish surʼatlarini namoyon etadi va 2028-yilga borib 4 trillion dollarga, 2035-yilga kelib esa 4,8 trillion dollarga yetishi kutilmoqda. Shuningdek, Qoʻshma Shtatlar jahon hayot sugʻurtasi mukofotlari hajmining taxminan 27 foizini oʻz ulushiga ega boʻlib, bu mamlakat sugʻurta sektori global bozorning yetakchi ishtirokchilaridan biri ekanligini anglatadi. Germaniya hayot sugʻurtasi bozori esa 2020-yilda oʻzining eng yuqori choʻqqisiga erishgan — yalpi yozilgan sugʻurta badallari 101,1 milliard yevroni tashkil etib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining (YaIM) 3,1 foiziga teng boʻlgan. Keyingi yillarda esa, biroz pasayish kuzatilgan: 2022-yilda 97,8 milliard yevro, 2023-yilda esa 95,8 milliard yevrogacha qisqargan. Shunga qaramay, 2024-yilda bozor qayta tiklanish bosqichiga kirgan. Prognozlarga koʻra, 2025-2029-yillar oraligʻida Germaniya hayot sugʻurtasi bozorining oʻsish surʼati 0,19 foiz atrofida boʻlishi kutilmoqda”¹. Bu esa, tarmoqda barqaror, ammo sekin oʻsish tendensiyasi kuzatilayotganidan dalolat beradi. Umuman olganda, hayot sugʻurtasi bozoridagi ushbu jarayonlar global iqtisodiy muhitning murakkabligi, aholi moliyaviy ongining oʻsishi hamda uzoq muddatli xavf-xatarlarni boshqarish mexanizmlarining takomillashuvi bilan izohlanadi. Shu bois, hayot sugʻurtasi sohasining jahon miqyosida barqaror oʻsish salohiyatiga ega ekanligini taʼkidlash mumkin.

Soʻnggi yillarda jahon miqyosida shaxsiy sugʻurta bozorini yanada rivojlantirish, ushbu soha orqali investitsiya oqimini kengaytirish hamda iqtisodiy oʻsishda sugʻurtaning rolini oshirishga qaratilgan koʻplab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadqiqotlarda shaxsiy sugʻurta xizmatlarini takomillashtirish, uning infratuzilmaviy institutlari faoliyatini rivojlantirish, aholining sugʻurta madaniyatini yuksaltirish, shaxsiy sugʻurta turlarini

¹ <https://feather-insurance.com/blog/life-insurance-statistics> sayt maʼlumotlari asosida

diversifikatsiyalash orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Shu bilan birga, tadqiqotlarda shaxsiy sug'urta tizimining iqtisodiyotdagi o'rnini, uning aholi farovonligi va investitsion muhitga ta'siri, shuningdek, soha rivojiga ijobiy va salbiy omillarning tahlili ham muhim o'rin egallaydi. Biroq, iqtisodiyoti shakllanish bosqichida bo'lgan davlatlarda shaxsiy sug'urta tizimining institutsional asoslari yetarlicha mustahkam emasligi, sug'urta kompaniyalari tomonidan aholiga taklif etilayotgan moliyaviy va investitsion xizmatlarning cheklanganligi, ayrim mavjud turlaridan samarali foydalanilmayotgani shaxsiy sug'urta bozorining iqtisodiyotdagi ulushini kengaytirishda to'siq bo'lmoqda. Shu sababli, bunday mamlakatlarda shaxsiy sug'urta bozorining investitsiyalarni jalb etishdagi rolini chuqur o'rganish, mavjud muammolarni kompleks tahlil qilish va ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

2024-yil yakunlariga ko'ra, sug'urta tashkilotlariga mijozlar tomonidan 143,7 mingta da'vo arizasi taqdim etilgan. Ushbu murojaatlarning katta qismi hayot sug'urtasi, avtotransport vositalarini sug'urtalash hamda tibbiy sug'urta yo'nalishlariga to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkichlar aholining sug'urta xizmatlaridan foydalanish darajasi ortayotganini va sug'urta tizimi real iqtisodiyotdagi moliyaviy himoya mexanizmi sifatida faol ishlayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, "sug'urta kompaniyalari tomonidan 2,2 trillion so'mdan ortiq sug'urta to'lovlari amalga oshirilgan. Bu esa, o'tgan yilgi ko'rsatkichlardan sezilarli darajada yuqori bo'lib, sohada nafaqat mukofot yig'implari, balki to'lov intizomi ham yaxshilanayotganini bildiradi. To'lovlar hajmining oshishi sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi va mijozlar oldidagi majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish qobiliyatini tasdiqlaydi. Yil yakunida sug'urta kompaniyalari zimmasidagi umumiy sug'urta majburiyatlari qariyb 2 702,1 trillion so'mni tashkil etdi"². Bu raqam sug'urta sektori hajmining kengayib borayotganini va kompaniyalar tomonidan qamrab olingan moliyaviy risklar hajmining sezilarli darajada ortganini anglatadi. Ushbu tendensiya sug'urta tizimining mamlakat

² <https://tanga.uz/news/149> sayt ma'lumotlari asosida tayyorlandi.